



# **“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy  
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining  
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



**“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari  
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026.   bet.

**Mas’ul muharrir:**  
**Shuhrat Sirojiddinov**  
filologiya fanlari doktori, akademik

**Tahrir hay’ati:**

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;  
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;  
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;  
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;  
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;  
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;  
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;  
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;  
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

|    |                                                                                                                   |     |
|----|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 7  | <b>Nasiba SIDIKOVA, Sevinch G‘AFFOROVA,</b><br>“Malika ayyor” dostoni variantlarida hasanxon obrazi tahlili       | 400 |
| 8  | <b>Nargiza UMURZAQOVA,</b><br>Tohir Malikning “Odamiylik mulki” asarida Imom G‘azzoliy hikmatlarining o‘rni       | 405 |
| 9  | <b>Nurjahon RAHMONBERDIYEVA,</b><br>Muhammad Alining “Avliyoning bashorati” dostonida tarix haqiqati va badiiyati | 408 |
| 10 | <b>Mohinabonu RAHMATOVA,</b><br>Nurota dostonchilik maktabining shakllanishi va rivojlanishi                      | 412 |
| 11 | <b>Sanobar TURSUNOVA,</b><br>Murod Mansurning “Judolik diyori” romanida diniy motivlar                            | 414 |
| 12 | <b>Lobar AVAZOVA,</b><br>Komiljon Imomov- o‘zbek xalq ertaklari tadqiqotchisi                                     | 417 |
| 13 | <b>Ozoda RAJABBOYEVA,</b><br>“Xuastuanift” asarida qadimgi mifologik dunyoqarashning aks ettirilishi              | 421 |

### 5-SHO‘BA. FOLKLOR VA ADABIY ALOQALAR

|     |                                                                                                                                               |     |
|-----|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 1.  | <b>Matluba JABBOROVA,</b><br>O‘zbek folkloridagi ayollar obrazining mumtoz adabiyotdagi transformatsiyasi                                     | 425 |
| 2.  | <b>G‘ayratbek XOLBUTAYEV,</b><br>Komik folklor janrlari tizimi: genezis, poetika va semantik transformatsiya                                  | 428 |
| 3.  | <b>Abdukamol ABDUJALILOV,</b><br>Sehrli ertaklarda motiv va obraz munosabati                                                                  | 433 |
| 4.  | <b>Ma‘mura RAMATOVA,</b><br>Shimoliy Xorazmdagi ayrim tarixiy godonimlarini qiyosiy tahlil qilish                                             | 437 |
| 5.  | <b>Gulruh RAVSHANOVA,</b><br>Muhammad Yusufning “Qora quyosh” dostonida poetik psixologizm                                                    | 441 |
| 6.  | <b>Feruza TURDIMOVA,</b><br>Muzayyana Alaviya adabiy merosida xalq og‘zaki ijodi va badiiyat uyg‘unligi                                       | 445 |
| 7.  | <b>Saodat JO‘RAYEVA,</b><br>Bolalar folklori janrlarining badiiy va tarbiyaviy xususiyatlari                                                  | 448 |
| 8.  | <b>Aziza SAYDULLAYEVA,</b><br>O‘zbek-turk xalq sehrli ertaklarida soch obrazining mifopoetik talqini                                          | 451 |
| 9.  | <b>Huriniso XAYRULLAYEVA,</b><br>“Qisasi Rabg‘uziy”da mavjud she‘riy parchalar badiiyatida folklor elementlarining ifodalanishi               | 454 |
| 10. | <b>Sadoqat KAMOLOVA,</b><br>“Masxara” obrazining badiiy-tarixiy funksiyasi (xalq og‘zaki ijodidan to bugungi kungacha bo‘lgan davr miqyosida) | 456 |
| 11. | <b>Shohzoda TURSUNBOYEVA,</b><br>Mifologik va fantastik tafakkurda “barhayotlik” muammosining namoyon bo‘lishi                                | 459 |
| 12. | <b>Dilafruz MAHKAMOVA,</b><br>“Bilga xoqon” romanida tarixiy xotira va turkiy qahramon xarakteri                                              | 463 |
| 13. | <b>Nilufar DEHQONOVA,</b><br>“Devonu lug‘otit-turk”dagi mifologik obrazlar va ularning folkloriy transformatsiyasi                            | 468 |

MUZAYYANA ALAVIYA ADABIY MEROSIDA XALQ OG'ZAKI IJODI VA  
BADIYYAT UYG'UNLIGI

HARMONY OF FOLKLORE AND ARTISTRY IN THE LITERARY HERITAGE  
OF MUZAYYANA ALAVIA

Feruza TURDIMOVA,  
TOSHDOTAU tayanch doktoranti  
10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/XUHA2377

**Annotation.** *The article analyzes the role of the scholar in folklore and literary studies based on the two-volume «Selected Works» by Muzayyana Alavia. Her services in collecting, publishing, and scientific research of Uzbek folk songs, as well as the significance of her poetic and journalistic heritage, are highlighted.*

**Key words:** *folklore, folk songs, ritual songs, literary heritage, poetry, journalism, memory.*

O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalarini to'plash, ularni tizimli ravishda tadqiq etish va kelajak avlodga bezavol yetkazish masalasi milliy madaniyatimizning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu borada filologiya fanlari nomzodi, atoqli folklorshunos olim va shoira Muzayyana Alaviyaning (1909–1988) xizmatlari beqiyosdir. Uning ko'p yillik samarali faoliyati natijasida o'zbek xalq qo'shiqlari, marosim folklori va lirik janrlar o'zining ilmiy asosini topdi.

Muzayyana Alaviya nafaqat qat'iyatli olim, balki nozikta'b ijodkor va o'tkir qalamli publitsist sifatida ham o'zbek adabiyoti tarixida yorqin iz qoldirgan. Uning ijodiy merosi o'zida ham ilmiy tafakkur, ham badiiy mahoratni mujassam etganligi bilan ajralib turadi. Olima o'z tadqiqotlarida xalq dardi, ayollarning ruhiy dunyosi va milliy qadriyatlarimizni birinchi o'ringa qo'ydi.

So'nggi yillarda o'zbek ziyolilari va adabiy merosini o'rganishga qaratilayotgan yuksak e'tibor natijasida Muzayyana Alaviya asarlari ham qayta nashr etilmoqda. Xususan, olimaning "Tanlangan asarlar"i ikki jild holida kitobxonlar qo'lga yetib borishi uning ko'p qirrali faoliyatini bugungi kun nuqtai nazaridan qayta baholash imkonini berdi. Ushbu maqolada mazkur ikki jildlik asosida Muzayyana Alaviya adabiy-ilmiy merosining o'ziga xos xususiyatlari, uning o'zbek folklorshunosligi taraqqiyotidagi o'rni hamda badiiy ijodidagi o'ziga xosliklar tahlilga tortiladi.

Muzayyana Alaviya merosining "Tanlangan asarlar" [Alaviya 2023] shaklida ikki jild bo'lib nashr etilishi olimaning ijodi, asarlari bilan qiziquvchi o'quvchilarni xursand qildi. Kitobning birinchi jildi akademik Naim Karimovning "Atoqli folklorshunos olim va shoira" deb nomlangan maqolasi bilan boshlanadi. Kitob mundarijasi: antologiya sarlavhasi bilan berilgan "O'zbek xalq qo'shiqlari" jamlamasi, monografiya qismida: "O'zbek xalq marosim qo'shiqlari" monografiyasi va "Adabiy-tanqidiy maqolalar" nomida olimaning adabiy maqolalaridan namunalar jamlangan. Tanlangan asarlarning ikkinchi jildi: she'r va dostonlar, hikoya va ocherklar, publitsistik maqolalar, "Esimdagilar" (olimaning xotiralaridan) tartibida tuzilgan. Jildni O'zbekiston xalq shoiri Zulfiyaning "Fidoyi inson va fidoyi olim" sarlavhali so'zboshisi va Lobar Qo'chqorovanning "Izlarini izlab" so'ngso'zi yakunlab beradi.

Akademik Naim Karimov maqolasida olimaning hayoti va ijodiga bir qur nazar tashlar ekan, uning XX asrda kechgan hayoti, olimaning shakllanishi va kamol topishida adabiy, ijtimoiy-siyosiy muhitning o'rni, xususan tog'asi shoir Abdulla Alaviyning xizmatlarini alohida mehr bilan yoritadi. Muzayyana Alaviyning folklorshunos olim va shoira, xalqning odob-axloq masalalarini hassoslik bilan ko'rsatib, yoritib beruvchi publitsist sifatidagi xizmatlarini alohida ta'kidlab ko'rsatadi. Muzayyana Alaviyning o'zbek folklori namunalarini, xususan xalq qo'shiqlarini yozib olish va nashr etib tadqiq etishdagi o'rnini ta'kidlab ko'rsatar ekan, shunday yozadi: "... Muzayyana Alaviyni Hodi Zarif bilan birga o'zbek folklorshunosligi fanining asoschilari, deb

aytsak, adolatdan bo‘ladi” [Alaviya 2023; 13]. Olimaning folklor asarlarining yaratilishida, saqlanib qolishi va avlodlardan avlodlarga yetib kelishida, ma’naviy meros sifatida qadr topishida ayollarning ham munosib xizmatlari borligini keng yoritib berganligi alohida ko‘rsatib o‘tiladi.

Olima butun umri davomida xalq qo‘shiqlarini yozib olish va nashr etish hamda tadqiq etish bilan mashg‘ul bo‘ldi. Bugungi kunda “Oq olma, qizil olma” deb aytilsa, olima tartib bergan xalq qo‘shiqlari kishi ko‘z o‘ngida namoyon bo‘ladi. Jildidan o‘rin olgan qo‘shiqlar ham asosan ana shu to‘plamda kelgan namunalardan iborat. Olima qo‘shiqlar uchun so‘zboshida yozadi: “O‘zbek xalq qo‘shiqlari to‘rtliklarda rivojlangan. Bu qo‘shiqlar iboraning o‘tkirliги, tilining soddaligi, mazmunining teranligi bilan ajralib turadi” [Alaviya 2023; 21]. Ayni fikr barcha turdagi qo‘shiqlarga uyg‘un keladi. Olimaning talqinlari qo‘shiq kabi kishining g‘ashiga tegmaydi. U ta’kidlaydi: “Odamning ruhiy dunyosi va hayot boyliklari tasvirida ko‘pchilikning sodda qalbi aks ettirilganida tabiat hodisasi va manzaralari yordamga kelsa, buzmay ko‘rsatilsa, unday she’r zavq ham, bilim ham beradi.

Daryo toshqin, suvlar to‘lqin  
O‘tolmayman yor-yor.  
Otim oriq, rangim sariq,  
Yetolmayman yor-yor.

Otgina mni oriq qilgan  
Shu mayda tosh, yor-yor.  
Tangina mni sariq qilgan  
Shu qalam qosh yor-yor.

Bu qo‘shiqda ham tabiatning ko‘zga ko‘rinadigan hodisasi bilan insonning ko‘z yoshlari ko‘rinmaydigan ichki kechinmalari teng qo‘yilib tasvirlangan. Mantiq va she’riy tadrij bor” [Alaviya 2023; 21].

Jildning “Antologiya” qismida qo‘shiqlar: terma qo‘shiqlar, laparlar, yor-yorlar, Xorazm qo‘shiqlari, kelin salomlar, o‘lanlar, bayt-g‘azallar, mehnat qo‘shiqlari, allalar kabi bo‘limlarga ajratilib joylashtirilgan. Bu xil tasnif ilk bor amalga oshirilgan bo‘lib, o‘z davri uchun muhim sanaladi va keyingi bo‘linishlar uchun asos bo‘lganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Jildning “Monografiya” qismi olimaning uch bobdan iborat “O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari” kitobining yangi nashridan iborat. Birinchi bob qo‘shiqlarning tarixiy ildizlari, ularning milliy urf-odatlar bilan bog‘liqligi masalalariga bag‘ishlangan. Ikkinchi bob qo‘shiqlarning asosiy xususiyatlari, turlari va xalq ma’naviy hayotida tutgan o‘rniga bag‘ishlanib, bu turlar – lirik qo‘shiqlar, mehr baytlari, termalar, mehnat qo‘shiqlari, mavsum-marosim qo‘shiqlari, allalar va aza qo‘shiqlariga ajratib tahlil etilgan. Kitobning uchinchi bobi to‘y marosim qo‘shiqlari, o‘lanlar, yor-yorlar, laparlar, bayt-g‘azal, kelin salom, “Xush kelibsiz” qismlariga ajratib talqin etilgan. Albatta, bugungi folklorshunoslik bu tartibni so‘zsiz qabul qila olmaydi, ammo o‘z davri uchun ahamiyati va xizmatini ham inkor etmaydi.

Jildning “Adabiy-tanqidiy maqolalar” qismidan folklor va adabiyotga oid ilmiy maqola va kuzatishlari o‘rin olgan. Olimaning bu fikrlari bugungi o‘quvchi uchun ham o‘z ahamiyati va qimmatini yo‘qotmaganligi bilan muhim sanaladi.

Muzayyana Alaviyaning “Tanlangan asarlar” saylanmasining ikkinchi jildi she’r va dostonlar, hikoya va ocherklar, publitsistik maqolalar hamda esdalik va xotiralar bilan yaqindan tanishar ekanmiz, olimaning noziktab shoira, o‘ziga xos nasr egasi, kuyinchak jurnalist bo‘lganligini ko‘ramiz. Jildning she’r va dostonlar qismida olimaning 1927-yildan to 1987-yilgacha yozilgan she’r namunalari va “Gulbahor”, “Yangi ro‘zg‘or” hamda “Zaynab uchun” dostonlari, hikoya va ocherklar, ma’rifiy publitsistik maqolalar, “Esimdagilar” deb nomlangan xotira parchalarini o‘qiymiz. Olima qaysi sohada qalam tebratmasin, xalq uchun kuyungan, hamisha adolat tomonida turib, xotin-qizlar haq-huquqlariga qayishgan kurashchi bo‘lganligiga guvoh bo‘lamiz.

Muzayyana Alaviyaning she'riy merosi ham o'z qimmatiga ega. Ayniqsa, shoiraning tabiatni kuylab yaratgan asarlari kishini to'liqlantiradi, nozik topilmalar va o'ziga xos tashbehlar bilan o'quvchini o'ziga jalb qiladi.

Tabiatning go'zal qizi – Ko'klamoy  
Tutdi nozik qo'lga nurdan yelpig'ich.  
Asta chiqdi o'z ko'rkini ko'rsatib,  
Gullar to'la yashil libos kiyinmish...

deb shoira 1929-yilda “Yoz ertaklari” she'rida yozgan bo'lsa, 1956-yilda yozgan “Bahor” deb nomlangan she'rda esa:

Qushning qanotiday boshda ro'mollar,  
Xurram ishlashardi sohib jamollar.  
Terisiga sig'may go'yoki g'uncha,  
Aylanib ketolmas esgan shamollar.

Bizning elda shunday boshlanar bahor,  
Bir bahor haqida yuzlab doston bor.  
Har bir varag'ida ochib o'qisang,  
Hur mehnat yaratgan minglab bo'ston bor... [Alaviya 7]  
deya tabiatni tarannum aylaydi.

Muzayyana Alaviyaning “Esimdagilar” xotirasi alohida tadqiq etishga, har bir satrini alohida tahlil etishga arziydi. U yerda tilga olingan voqealar, shaxslar, xarakterlar alohida izohlarni talab ham qiladi. Xotira to'liq e'lon qilinmaganligi sezilib turibdi. “Esimdagilar”da Muzayyana Alaviyaning bolaligi, Samarqandda kechgan hayoti nisbatan to'liq aks etgan. Xususan, olimaning Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Hamid Olimjonga bag'ishlangan satrlarini shunchaki o'qish mumkin emas. Olimaning topganlari, yo'qotganlari, iztirobu quvonchlari o'quvchini befarq qoldirmaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alaviya, M. Tanlangan asarlar. I jild. – Toshkent: Encyclopedia World nashriyoti, 2023.
2. Alaviya, M. Tanlangan asarlar. II jild. – Toshkent: Encyclopedia World nashriyoti, 2023.
3. Qodirova, M. Muzayyana Alaviya. – Toshkent, 1968.
4. Alaviya, M. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari. – Toshkent, 1974.